

12-10-2019

THE WAYS OF COMMUNICATIVE COMPETITION OF THE PUPILS OF PRIMARY CLASSES

Turg'unoy Umarjonovna Jo'rayeva
Namangan State University

Yulduzkhan Kabildjanovna Shaamirova
Namangan State University

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Jo'rayeva, Turg'unoy Umarjonovna and Shaamirova, Yulduzkhan Kabildjanovna (2019) "THE WAYS OF COMMUNICATIVE COMPETITION OF THE PUPILS OF PRIMARY CLASSES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 12 , Article 53.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss12/53>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

THE WAYS OF COMMUNICATIVE COMPOTENTION OF THE PUPILS OF PRIMARY CLASSESS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2019 йил 12 сон

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan davlat universiteti M. TTB-AU-18 guruh magistranti Ilmiy rahbar:

pedagogika fanlari nomzodi

SHAamirova Yulduzxon Kabiljanovna

***Annotatsiya :** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birga kommunikativ kompetensiyani rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan omillar keltirilgan va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** qobiliyat, o'quvchi, kommunikativ, kompetensiya, layoqat, individual, zamonaviy yondashuv, ta'lim sifati, musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq, samoradorlik, tushunuvchanlik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, natijalilik, xususiyat, sifat, miqdor, ijtimoiy kompetensiya.*

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВАМИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.**

Жураева Тургуной Умаржоновна

Наманганский государственный университет магистрант

М.ТТБ-АУ-18 группы

Научный руководитель: кандидат педагогических наук

Шаамирова Юлдузхон Кабиляджановна

***Аннотация:** В данной статье речь идёт о развитии коммуникативной компетенции учащихся начальных классов. С этим еще приведены факторы, которые препятствуют развитию коммуникативной компетенции, и даны советы по устранению данных факторов.*

***Ключевые слова:** способность, учащийся, коммуникатив, компетенция, пригодность, индивидуальные, современный подход, качество образования, соревноваться, состязаться, бороться, эффективность, понятливость, адаптация, перспективность, успешность, действенность, особенность, качество, количество, экономический компетенция.*

**THE WAYS OF COMMUNICATIVE COMPETITION OF THE PUPILS OF
PRIMARY CLASSES**

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan State University M.TTB-AU-18group magistrant

Scientific director: PhD in Pedagogy

Shaamirova Yulduzkhan Kabildjanovna

Abstract: *There is a lot of opinion about to improve communicative competence of primary school's pupils in this article. In order to this facts given abstracted to have more communicative competences and given recommendation to solve them.*

Key words: *ability, appropriation, gift, pupil, communication, competence, aptitude, individual, modern approach, quality education, compete, contend, struggle, efficacy, comprehension, adaptation, prosperity, success, effectiveness, characteristic, future, quantity, social competence.*

Ilm ma'rifatning o'chog'i, buyuklar yurti hisoblangan ona zaminimiz qadimdan fanlarning asosi yaratilgan o'lka hisoblanadi. O'zbekistonimizni dovrug'ini dunyoga tanitish uchun esa shu yurtning har bir fuqarosi mas'uldir. Jamiyatimiz jahon miqyosida o'z o'rniga, o'z mavqeyiga ega bo'lishi, bugungi kundanda yuksak darajalarga erishishi uchun avvalo yoshlarimizga katta e'tibor qaratmog'imiz kerak. Chunki bugundan keyin albatta erta keladi, bu esa hayot haqiqatidir. Bizning ertamiz qanday bo'lishi esa yoshlarimizga qaratayotgan e'tiborimizda, tarbiyamizda o'z aksini topadi. Shuning uchun har birimizni birinchi va muhim vazifamiz farzandlarimizni bilimli, zukko, mehnatsevar, insonparvar va albatta o'z vataniga sodiq inson qilib o'stirishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirishimiz uchun barchamiz bahamjihatlikda harakat qilmog'imiz zarurdir. Yuqorida qayd etilgan maqsadlarimizni amalga oshirishini taminlash uchun bugungi kunda juda ko'p qaror va qonunlar qabul qilinayotganligi fikrimizni yaqqol dalili desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni barcha sohalarini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" davlat dasturining ishlab chiqilishi buning aynan isbotidir.[1]

Zamon bilan hamnafas yashash har birimizning hozirgi kundagi eng muhim vazifamizga aylanib bormoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda har tomonlama yetuk farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish har bir ota-ona va o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifadir. Bu vazifani bajarishga esa sitqidildan yondashib, harakat qilish kerak.

Ilm insonni ulug'laydigan, uni poklaydigan va yetuklik sari chorlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqimizda shunday naql bor "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Shu bilan birga dinimizning muqaddas kitobi "Quron-i karimda" da ham ilm olish, bolani tarbiyalash haqida juda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.[2]

Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim-tarbiyani hayotimizning mazmun mohiyatiga aylantirmog'imiz kerak. Shundagina biz bugun oldimizga qo'yayotgan ulkan maqsadlarimizni amalga oshira olamiz. Prezidentimiz juda ko'p bora madaniyat va marifatning o'chog'i, ulug' olim-u fuzalolar, mutafakkir va allamolar yurti bo'lgan bu ona zaminimizda yana shunday ulug' insonlarni tarbiyalab kamolga yetkazish haqida fikrlarni olg'a surmoqdalar. Buyuk bobokolonlarimizga munosib izdoshlarni tarbiyalaylik. Bu yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun juda keng ko'lamda amaliy ishlar ham olib borilayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu xususda "Ibrat", "Al Xorazmiy", "Mirzo Ulug'bek", "Beruniy", "Alisher Navoiy" va boshqa ko'plab maktablarning tashkil qilinganligini misol keltirishimiz mumkin. Yoshlarimizdagi qobilyatlarni yanada

yuksaltirib, yurtimiz taraqqiyoti va rivojiga o'z hissalarini qo'shishlari uchun biz ularga imkoniyatlar eshigini ochib berishimiz juda muhimdir. Toki ular o'z qobilyatlarini namoyon eta olishsin. Qobilyatsiz insonni o'zi bo'lmaydi, faqatgina uni namoyon etish va shakllantirish uchun zarur shart –sharoit yaratib berish kerak, aks holda bu qobiliyat layoqatligicha qolib ketadi. Qobilyatlar turli yoshda va turli xil vaziyatlarda namoyon bo'ladi, faqatgina buni o'z vaqtida seza olishimiz, uni to'g'ri yo'lga yo'naltira olshimiz zarur. Har qanday qobilyatni namoyon qilish uchun muloqot eng muhim omil hisoblanadi. Muloqot deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda so'zlashish jarayoni, so'zlardan foydalanib aloqaga kirishish keladi. Muloqot jarayoni faqatgina so'zlargagina bog'liq bo'lmasdan balki tashqi ko'rinish, imo-ishoralar, yuz ifodalar, turli hatti-xarakterlar orqali ham amalga oshiriladi. Shunday bo'lsada kishilik jamiyatimizda nutqiy muloqot juda katta ahamiyat kasb etadi. Nutq faoliyati odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Muloqot jarayoni shu bilan birga o'zini tutushi, jamoa bilan kelishib keta olishi, turli vaziyatlardan mohirona yo'l topib chiqa olishi, barchani birdek hurmat qilishi, xushmuomila bo'lishi, birovni tinglay olishi, ma'noli so'zlashi va shunga o'xshash juda ko'p omillarga bog'liqdir. Pedagogik va psixologik manbaalarimizda bularni bir so'z bilan "kommunikativ qobilyat" deb ataladi.

Qobilyat o'zi nima, u insonlarda qay tarzda namoyon bo'ladi degan savollarga, u insonlarning bosh miya faoliyatining ishlashi bilan bog'liq degan javobni olamiz. Masalan: ba'zi bir insonlarda miyaning chap qismi ko'proq rivojlangan, boshqalarda esa o'ng qismi rivojlangan deyiladi. Miyaning chap qismi mantiqiy jihatdan narsalarga baho bersa bersa, o'ng miya- hissiyot bilan intuitsiya orqali bo'lib, narsalarni qabul qilishga yordam beradi.[3]

Pedagogik qobilyatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Didaktik qobilyatlar.
- Akademik qobilyatlar.
- Perseptiv qobilyatlar.
- Nutq qobilyati.
- Tashkilotchilik qobilyati.
- Avtoritar qobilyat.
- Kommunikativ qobilyatlar.
- Pedagogik hayol.
- Diqqatni taqsimlay olish qobilyati.

Shularda biri kommunikativ qobilyatdir. Pedagogik kitoblarimizda kommunikativ qobilyatga quyidagicha ta'rif berilgan: **kommunikativ qobilyat** –bu bola bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga, pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobilyatdir. Psixologik kitoblarda esa **kommunikativ qobilyat** - bu kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobilyatdir.[4]

Barcha sohada bo'layotgan yangiliklar zamirida ta'limda ham juda ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bulardan biri shuki 2017-yil 6-aprelda DTS ga o'zgartirish kiritildi. Shu bilan birga o'quv fanlarimizga kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi ham kirib keldi.

“Competence” so'zi “to compete” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan manoni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” manosida keladi. Atamaning mohiyati shuningdek, “samaradorlik”, “tushunuvchanlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelish tarixi shartli ravishda to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich (1960-1970-yillar). Bu davrda ilk bor “kompetensiya” va “kompetentlik” so'zlari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. Shu davrdan boshlab til o'rganish nazariyasi yo'nalishida til kompetensiyasi turlariga tegishli tadqiqotlar boshlanib D.Xayms tomonidan, “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (1970-1990-yillar). Bu davrda til o'rganish (ayniqsa o'z ona tilisi bo'lmagan) nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda kasbiy mahorat, rahbarlikqilishda, menejmentda, muloqot qilishni o'rganishda kompetensiya/kompetentlik kategoriyalari ishlatila boshlandi. Bu davrda “ijtimoiy kompetensiya/kompetentlik” tushunchalarining mazmuni ishlab chiqila boshlandi. Bu bosqich J.Raven nomi bilan birga tilga olinadi.

Uchinchi bosqich 90-yillardan boshlanadi. Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta'limga nisbatan qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari bajarildi. Bu davrda A.K.Markova, L.M.Mitina, L.A.Petrovskoy, N.V.Kuzmina va boshqalar samarali ish olib borishgan.

To'rtinchi bosqich kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog'langandir. 2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi tomonidan uzluksiz ta'lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O'z ona tilida muloqot qila olish;
2. Chet tillaridan birida muloqot qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O'qishni o'rganish;
6. Ijtimoiy vafuqarolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi;
8. Madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash;

Ushbu berilgan kompetensiyalar hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan. Bundan ko'rinib turibdiki har bir davlatda o'zining uzluksiz ta'lim jarayonini yanada yuksaltirish maqsadida tayanch kompetensiyalar qabul qilinadi. Bizning davlatimizda ham alohida va umumiy kompetensiyalar qabul qilindi.

Fanlarimiz uchun 6 ta tayanch kompetensiya asos qilib olindi. Ular:

1. Kommunikativ kompetensiyasi.
2. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi.
3. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.
5. Milliy va umummadaniy kompetensiyasi.
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.[5]

Shulardan biri kommunikativ kompetensiya biz ta'riflagan kommunikativ qobiliyatlarga to'la mos keladi. Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tili qoidalari asosida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini nazarda tutadi. O'quvchi yoshlarimizdagi kommunikativ kompetensiyani qanday qilib rivojlantirishimiz mumkin? degan savol oldimizda turgan va hal etishimiz juda muhim bo'lgan masaladir. Avvalo bu muammoning yuzaga kelish sabablarini aniqlab olaylik. Bunga birgina omil emas balki bir-biriga bog'langan juda ko'p sabablar bo'ladi. Kommunikativ kompetensiyani yuzaga kelishi, uni rivojlanishiga quyidagi omillar to'sqinlik qiladi:

- Farzand uchun kam vaqt ajratish
- Bolaning savollariga to'liq javob bermaslik
- Ota-onaning bola bilan kam muloqotga kirishishi
- Bolaning fikrlarini oxirigacha tinglamaslik
- Bolaning qiziqishlari va qobiliyatini hisobga olmaslik
- Ijtimoiy muhit
- Bola psixologiyasida yuzaga kelgan kamchiliklarni vaqtida bartaraf etmaslik
- Bolaning mustaqilligiga to'sqinlik qilish
- Atrofdagi insonlarning e'tiborsizligi
- Tarbiyasida qisman uzulish sodir bo'lishi
- Ta'lim va tarbiyaning uyg'unlashmaganligi

va boshqa shunga o'xshash ko'plab omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu misollarning barchasi birgalikda yuzaga kelmaydi, aksincha bir bolani hayotida bitta omilning chuqur iz qoldirishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan holatlatlarni o'z vaqtida bartaraf etmasak farzandlarimiz fe'l-atvorida tortinchoqlik, odamovilik, muloqotga kirisha olmaslik, injiqlik, mustaqil fikrlay olmaslik, kamgaplik kabi salbiy sifatlar shakllanib qolishi, shu bilan birga bolaning ruhiyatiga singib qolishi mumkin. Kamgap deganda biz o'z fikrini bildirishdan qochadigan, faol muloqot jarayonidan o'zini tortadigan o'smirlarni nazarda tutmoqdamiz.

Biz o'zbeklarda kamgaplik yaxshi fazilatlar qatoriga kiritilgan. Hozirgi kunda bu fazilat ikkilamchi bo'lib qolmoqda. Chunki kamgap bo'lsin deb muloqotdan qochadigan yoshlarni tarbiyalab qo'ymayapmizmi? Har birimiz shu haqida mulohaza yuritib ko'rsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi " Muloqot- shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi" deb yozgan edi.

Hadislarimizda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra bolani tarbiyalashni u hali tug'ulmasdan oldin boshlash kerak. Ya'ni onaning vujudida farzand paydo bo'lganidan boshlab uni tarbiyalashni amalga oshirishimiz zarur. Bu bosqichni 1-bosqich deb qaraydigan bo'lsak, keyingi bosqichlarni yosh davrlariga ajratishimiz mumkin:

- Go'daklik davri (tug'ulgandan 1 yoshgacha)
- Yangi davri (1 yoshdan 3 yoshgacha)
- Maktabgacha tarbiya yoshi (3 yoshdan 6-7 yoshgacha)
- Kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha)
- O'smirlik davri (12 yoshdan 15-16 yoshgacha)
- O'spirinlik davri (14-16 yoshdan 18 yoshgacha)

Bu bosqichlar inson hayotidagi muhim bosqichlar sanalib, uning kamol topishida va xarakterida turli o'zgarishlar sodir bo'ladigan davrlar hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, butun borliqni anglashga intilayotgan jaji yurakchalarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish lozim. Farzandini ertangi kuniga katta umidlar bog'layotgan har bir ota-onadan bu davrlarni va shu davrlarga xos bo'lgan xususiyatlarni yaxshi bilishi talab qilinadi. Har birimiz farzandimizni muloqotga kirishuvchan, jamoa bilan tez til topisha oladigan, turli vaziyatlarga moslashuvchan, mustaqil fikrlaydigan va bilimli bo'lishini xohlaymiz. Bu maqsadimizni amalga oshirish uchun bolalarda kommunikativ qobiliyatni va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishimiz lozim. Bu ikki atama bir olmaning ikki pallasiga o'xshaydi. Biri ikkinchisini doimo to'ldirib turadi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun avvalo kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish talab etiladi. Ularni birgina farqli tomoni shundaki kommunikativ kompetensiyada biror xorijiy tilni bilish va unda muloqot qila olish talab etiladi. Kommunikativ qobiliyat esa bu kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobiliyatdir Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki bolaning kamol topishida sodir bo'layotgan har bir o'zgarishga e'tibor berishimiz, uning qiziqishlariga, fe'l-atvoridagi o'zgarishlarga hamisha diqqat qaratishimiz zarur deb o'ylayman. Bu o'zgarishlarni sezgan chog'da esa uni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishimiz, agar bu ishni qanday amalga oshirishni bilmasangiz kerak bo'lsa mutaxassisga murojat etib vujudga kelgan holat yuzasidan maslahat va yo'l-yo'riqlar olish zarur.

Aziz ota-onalar borliqdagi hamma narsa bola nigohida o'zgacha tarovat kasb etadi. Bolakayning savollari limmo-limdir. Bu savollarga javob berishdan aslo qochmang. Siz savollarga to'liq va aniq javob bering. Farzandingizga iloji boricha ko'proq vaqt ajrating, uning qiziqishlarini hamisha hurmat qiling. Ota-bobolarimizdan qolgan shunday ibratli so'z qolgan bolaga mehr bering toki u ulg'ayib sizga ham mehr ko'rsatadi. Hozirgi kunda ko'plab ota-onalar farzandini o'zining hoxish istagiga quloq solishga majbur qilmoqdalar. Bolaning qiziqishlaridan ko'ra moddiy manfaatni ustun qo'yadigan ota-onalar ham oramizda uchrab turibdi. Ularning nazdida kelajagini o'ylayapman deyishadiku, lekin o'zlarining istaklarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Buning natijasida esa o'z kasbini sevmaydigan, unga mas'uliyat bilan yondashmaydigan kadrlar yuzaga kelib qolmoqda. Besh qo'l baravar emas hammani ham shunday deyishdan yiroqmiz.

References:

1. “Harakatlar strategiyasi” 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta yo'nalishi. Davlat dasturi.
2. “Quroni Karim” Sharq ma'naviy merosini o'rganish akademiyasi. Toshkent-1991. 56-58-betlar
3. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiyasi. –T.: ToshDPU, 2010. 77-bet
4. B.M. Umarov. Psixologiya. “Voris-nashriyoti” Toshkent-2012.
5. T.N.Qori Niyoziy nomidagi ilmiy –tadqiqot institute. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Toshkent-2015. 7-20-betlar
6. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov. Pedagogika.”Noshir”, Toshkent-2011. 551-571-betlar
7. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilov. Umumiy psixologiya. (darslik) Toshkent-2017. 233-247-betlar

МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

- 1 Visual c# da razryadli operatsiyalar.
Temirov O.M..... 3
- 2 Java dasturlash tilida abstrakt sinflar
Holmirzayev H.E..... 6
- 3 Ўнг томони номаълум ва коэффициенти узулишга эга бўлган биринчи тартибли
чизиқли оддий дифференциал тенглама учун масалалар
Тиллабаева Г.И..... 10
- 4 Matematika darslarida muammoli ta'lim
Alixanov O.O..... 15
- 5 О некоторых задачах теории одномерной бифуркации
Тухтасинов М,Кушақов Х.Ш 20

КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

- 6 Карбоксиметилцеллюлоза: олиниши, айрим физик – кимёвий хоссалари,
ишлатилиши (обзор)
Сайпиев Т.С..... 27
- 7 N-vinilpirrolidon asosida suvda eruvchan sopolimerlar sintez qilish va ular
makromolekulalarining kompozitsion tuzilishini o'rganish
Toshmatov Y.R., Dexqonov R.S.,Boydedayev. A.A..... 39

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

03.00.00

БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

BIOLOGICAL SCIENCES

- 8 Far1 Related Sequence (FRS) генлар оилас ининг вакили frs10 гени g.hirsutum
туридаги функсиясини рнки технологияси ёрдамида ўрганиш.
Усманов Д.Э, Буриев З.Т, Абдукаримов Ш.С, Собиров Б.М, Мухторов А. Т..... 46
- 9 Кўхитанг тизмаси флораси таркибидаги ziziphora l. туркуми турларининг
биоэкологияси
Ибрагимов А.Ж,Батошов А.Р,Каримов Б.А,Мирзаев С.И 50

ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

05.00.00

ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

TECHNICAL SCIENCES

- 10 Интернет самарали коммуникация канали сифатида
Бекназаров К.Т..... 54

ТАРИХ ФАНЛАРИ

07.00.00

ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

HISTORICAL SCIENCES

11	XX asrning 60-80-yillarida namangan viloyati xalq ta'limi tizimi: muammolar va yutuqlar Mamasaidov L. P.....	60
	ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
	09.00.00 ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ	
	PHILOSOPHICAL SCIENCES	
12	Tarixiy taraqqiyotda ayollarning o'rnini Mamatov O.V.....	64
13	Миллий байрамларда санъат турларининг ифодаси Шадиметова Г.М.....	67
14	Замонавий санъатларда янги эстетик мезонларнинг вужудга келиши Кадирова Д.С.....	72
15	Мақом куйларининг фалсафий-эстетик моҳияти Нуруллаева З.С.....	78
16	Ахборот медиамаданияти трансформацияси ва глобаллашуви Кодиров Н.М.....	83
17	Ренессанс даври мутафаккирлари оилавий муносабатларда поклик ва гўзаллик ҳақида Хандамова М.....	93
18	Полифункционаллик халқ қабулхоналарининг ўзига хос хусусияти сифатида Айтбоев М.Ю.....	99
19	Оиланинг жамиятдаги роли ва ижтимоий функциялари Абдуллаева Н.....	103
20	Инновация фалсафасининг ижтимоий функционал хусусиятлари Ходжаев С.Б.....	108
21	Бохарзий ва унинг вақф ерлари Норова М.Ф.....	113
22	Туркистон “Янги усул” мактабларида таълим жараёнининг ташкил этилиши ва ундаги гендер муаммолари Намазова Ю.М.....	121
23	Аҳмад Заки Валидийнинг тарих фалсафаси Хужаев М.И.....	126
	ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
	10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ	
	PHILOLOGICAL SCIENCES	
24	The Role of stylistics in linguistics and literature Umrzaqov I. I.....	133
	Девону Луғотит Турк” асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид	
25	лексемаларнинг семантик хусусиятлари Розикова Г.З.....	136
26	О'zbek tiliga o'zlashgan arabcha leksemalar va ularning badiiy asarlarda qo'llanilishi Rahmatullayev.Y.....	142
27	Замонавий таълим тизимида касбий компетентликни модуллаштиришмоҳияти	

Абдиева С.М.....	146
28 Qo'shma gaplarda shakl va mazmun Ahmedova N.Sh.....	151
29 Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках Каримова В.....	156
30 O'zbek adabiy tili uslublarining shakllanishi Vabaxanova D.A.....	163
31 Йўл мотиви ҳақида Қўчқаров О.....	169
32 Жаҳон тилшунослигида диний функционал услубнинг ўрганилиши Юсупова Ш.Т.....	173
33 Жек лондоннинг исёнчи асаридаги воқеаликни тасвирлаш хусусиятлари Najmiddinov J, Bahodirov A.....	179
34 Johann Wolfgang Gytoring "Yosh Verterning iztiroblari" romanida poetonimlar talqini Vozorova R.Sh.....	182
35 "Алпомиш" библионими ва бош тимсол исми, лақаби хусусида Улуқов Н, Юнусова Б.....	186
36 Наманган қипчоқ шевалари ва этнослараро жараёнлар Дарвишов И.Ў.....	190
37 Grammatik ko'rsatkichlarning o'zlashtirilishida aniqlik darajasi (O'zbek tilini o'rganayotgan koreyslar misolida) Saidaxmedova O.I.....	197
38 Перевод понятий означающие национальных конвенций, традиций и обряд Самандаров . Ш.С.....	202
39 Принцип вежливости в речевом общении. Саидова М.Ш, Холматова Г.И.....	205
40 Адабиёт ва прагматика Раҳимов У.Э, Махаммаджлонов Н.Д.....	209
41 Хикматли сўзлар таржимасида қофияни сақлаш Абдуллажанов А, Мамадалиев Э.....	214

ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ
11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ
GEOGRAPHICAL SCIENCES

42 Фарғона водийси дарёлари оқимининг иқлим илишига реакцияси Солиев И.Р., Ғулломжонов Д.....	219
--	-----

13.00.00 ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

43 Готовность будищих педогогов как основной фактор успешности инклюзивного образования Сатторов М, А.....	225
---	-----

44	Педагогик стратегия - олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг концептуал асоси Эргашев Б.Б.....	229
45	Таълимда ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш афзалликлари Ниязова Н.А.....	234
46	Олий таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнида фанларичра ва фанлараро интеграциясини таъминлашнинг педагогик-психологик масалалари Жуманов А.А.....	237
47	Мактабгача таълим ташкилотларини инновацион ривожлантириш муаммолари Абдуназарова Н.Ф, Хамдамова М.Т, Парманов Ж.А.....	242
48	Физика ўқитувчиларининг таълимга инновацион ёндашуви Бекназаров З.Ф.....	245
49	Тухника йўналишиндаги мутахассис компетентлигининг модели Даминов О.О.....	250
50	Олий таълим муассасаларида замонавий инновацион технологияларини қўллашнинг ўзига хослиги ва хусусиятлари Исмаилова З.К, Химматалиев Д.О.....	257
51	To actual directions of development of export of fruit and vegetable products in Uzbekistan Avulchaeva F.....	261
52	The significance of cultural awareness in second language learners' classroom Umirzakova D.A.....	264
53	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo'llari Jo'rayeva T.U, Shamirova Y.K	268
54	Role of peer observation in foreign language teaching Jalolov Sherali, Botirova Z.X.....	274
55	Ingliz tilni o'rgatishda mnemonik usullardan foydalanish Yunusova Y.B.....	278
56	Талаба ёшлар соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласига қадрият сифатида қарашни тарбиялаш муаммолари Назаров А.Т.....	281
57	“Олий таълим муассасалари ўқув–жисмоний машғулотлар жараёнини ташкиллаштиришда blended learning концепциясидан фойдаланиш орқали таълим сифатини ошириш” Махкамов А.Ю.....	284
58	Ўқувчиларнинг геометриядан ўқув фаолиятини фузионизм ғояси асосида такомиллаштириш йўллари Ғойибназарова Г.Н, Джураева Ш.К.....	288
59	Мактабгача таълим муассасаларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш Ибрагимова Г.Н.....	293
60	8-синф физика курсининг “электр заряд. электр майдон” бобини ўқитиш Зоҳидов И.О, Каримова Р.К, Умаров А.О.....	298

61	Таркибида сирт фаол модда тутган учкарбамид хлорат натрий дефолиантини олиш жараёнини ўрганиш Умиров Ф.Э, Худойбердиев Ф.И, Номозова Г.Р, Закиров Б.С.....	303
62	Ижтимоий-эмоционал кўникмалар шаклланишининг педагогик-психологик омиллари Раҳимова М.А.....	311
63	Ҳамкорлик педагогикасининг узлуксиз таълим тизимидаги инсонпарварлашув хусусиятлари Ўринова Ф.Ў, Усмонова Ш.Ё.....	317
64	Чақириққача ҳарбий таълим бўйича мутахассисларни шакллантиришнинг долзарб масалалари Хасанов А.Т, Юсупов Т.Т.....	323
65	Мобиллик-олий педагогик таълимни модернизация қилиш сифатида Эшназарова М.Ю.....	327
66	Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларида касбий муҳим сифатларни шакллантириш педагогик жиҳатлари Қодиров М.М.....	332
67	Бошланғич таълимда прагматик ёндашув асосида матн ўқишнинг ўзига хос хусусиятлари Йўлдашева Д, Буважонова М.....	338
68	Бошланғич таълимда интеграциялашган ўқитишнинг аҳамияти Рустамова Д.....	341
69	Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни нутқ маданиятини шакллантиришда китоб ва унинг аҳамияти Ўринова Ф, Сидикова З.....	344
70	Технология использование метода кейс-стади при изучении компьютерной графики. Отабаева Ф.Т.....	348
71	Pedagogik tajribalarni to'plash va ommalashtirish tizimi Mo'minova G, Insarova G,.....	355
72	Талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш- ўқув жараёнининг асоси Мўминов З.О.....	359
73	Innovatsiya ta'limning muhim elementidir. Madaminov F.Sh.....	367
74	Intellectual kompyuter o'yinlari yordamida individual matematik ta'limni yo'lga qo'yish Najmiddinova . H.Y.....	373
75	Футболчиларни эмоционал ҳолатларини аниқлашнинг методик хусусиятлари Сатиев Ш.К	378
76	Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллаштириш. Қамбаров М.М	384

77	Содержание и структура учебников по методике обучения языкам Габдулхаков, Фарид Ахунович.....	391
	ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PSYCHOLOGICAL SCIENCES	
	19.00.00	
78	Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш омиллари Ортиқова З.Н.....	395
	СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ SOCIOLOGICAL SCIENCES	
	22.00.00	
79	Маънавий тарбия ва тарихий онг Махкамов Қ.О.....	398